

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 2571,7 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 61,7 ming kishiga yoki 2,5 %ga o'sgan.


E'tibor bering: 2019-yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **61,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **50,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **15,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **21,1 mingta nikoh** va **4,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2019-yil yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-yanvar holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)




Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 365,6 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,2 %ni) va Shayxontohur tumanida 342,0 ming kishini (13,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 34,9 ming kishini (1,4 %) va Yakkasaroy tumanida 119,6 ming kishi (4,6 %) tashkil etdi.



Tumanlar kesimida doimiy aholi soni
(2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishida)



**Toshkent shahrining
aholi soni 2020 yil 1
yanvar holatiga 2571,7
ming kishi, o'tgan yilga
nisbatan o'sish sur'ati
2,5 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2018-yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 6,0 %ga, Yashnobod tumanida 4,1 %ga, Uchtepa tumanida 2,8 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida 0,4 % ni, Shayxontohur tumanida 1,5 %ni hamda Mirzo Ulug'bek tumanida 1,5 ni % tashkil etdi.

Demografik holat

Toshkent shahrida aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020-yil 1-yanvar holatiga, ming kishida)



Ma'lumot uchun

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1315,3 ming kishini, erkaklar soni esa 1256,4 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2.2% ga erkaklar sonidan ko'proq.

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
Toshkent shahar	2 571,7	1 256,4	1 315,3	48,9	51,1
tumanlar:					
Uchtepa	273,3	135,0	138,3	49,4	50,6
Bektemir	34,9	16,5	18,4	47,3	52,7
Yunusobod	339,2	163,5	175,7	48,2	51,8
Mirzo Ulug'bek	274,6	136,5	138,1	49,7	50,3
Mirobod	138,8	67,6	71,2	48,7	51,3
Shayxontohur	342,0	167,3	174,7	48,9	51,1
Olmazor	365,6	176,7	188,9	48,3	51,7
Sergeli	192,8	93,1	99,7	48,3	51,7
Yakkasaroy	119,6	58,5	61,1	48,9	51,1
Yashnobod	242,3	119,2	123,1	49,2	50,8
Chilonzor	248,6	122,5	126,1	49,3	50,7

Demografik holat

Tug'ilish. 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 50,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,8 promilleni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega ko'paygan (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 18,3 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan Uchtepa tumanida (21,4 promilledan 24,1 promillega) Bektemir (26,4 promilledan 29,4 promillega) Olmazor tumanida (19,6 promilledan 21,7 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Qiz bolalar:
23,3
ming nafar



O'g'il bolalar:
26,9


Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-dekabr

	2018y.	2019y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahar	45 548	50 247	110,3
tumanlar:			
Uchtepa	5 652	6 493	114,9
Bektemir	884	998	112,9
Yunusobod	6 018	6 642	110,4
Mirzo Ulug'bek	3 855	4 190	108,7
Mirobod	2 138	2 224	104,0
Shayxontohur	6 573	6 661	101,3
Olmazor	6 954	7 867	113,1
Sergeli	3 960	4 497	113,6
Yakkasaroy	1 554	1 623	104,4
Yashnobod	3 933	4 433	112,7
Chilonzor	4 027	4 619	114,7



Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi) 2019-yil yanvar-dekabr




Demografik holat

Vafot etganlar. 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 15,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,1 promilleni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 6,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Chilonzor (6,7 promilledan 6,1 promillega), Mirobod (7,6 promilledan 7,1 promillega), Sergeli (7,1 promilledan 7,6 promillega), Uchtepa (6,6 promilledan 6,1 promillega) va Bektemir (7,5 promilledan 7,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



**8,1 ming
kishi**


**7,4 ming
kishi**

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2019-yil yanvar-dekabr


	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati foizda
Toshkent shahar	15 745	15 477	98,3
tumanlar:			
Uchtepa	1 754	1 634	93,2
Bektemir	250	241	96,4
Yunusobod	1 986	2 082	104,8
Mirzo Ulug'bek	1935	1989	102,8
Mirobod	1 025	975	95,1
Shayxontohur	1 545	1 516	98,1
Olmazor	1 959	1 913	97,7
Sergeli	1269	1245	98,1
Yakkasaroy	605	602	99,5
Yashnobod	1 803	1 775	98,4
Chilonzor	1 614	1 505	93,2

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2019-yil yanvar-dekabr



Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (foizda)




Demografik holat

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,6 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,7 %i o'simtalardan, 5,3 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,8 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 7,3 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,6 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 19,7 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,7 % tug'ma anomaliyalardan, 5,9 % yuqumli va parazitar kasalliklardan va 4,1 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019-yil yanvar-dekabr

Tabiiy o'sish. 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 34,7 ming kishini tashkil etib, 2018-yil mos davriga nisbatan 4,9 ming kishiga (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 29,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
34,7 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 21,1 ming ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (111,5%), Chilonzor (110,5%), Uchtepa (108,9%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,8 promilleni tashkil etdi.



Ajrimlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (127,1%), Mirzo Ulug'bek (116,1%), Bektemir (112,1%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (2019-yil yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahri	20 302	21 070	103,8	4 292	4 529	105,5
tumanlar:						
Uchtepa	2 406	2619	108,9	453	474	104,6
Bektemir	401	373	93,0	91	102	112,1
Yunusobod	2 684	2868	106,9	562	578	102,8
Mirzo Ulug'bek	1 763	1841	104,4	471	547	116,1
Mirobod	1014	1002	98,8	279	279	100,0
Shayxontohur	2 753	2704	98,2	396	423	106,8
Olmazor	2 777	2872	103,4	490	502	102,4
Sergeli	1 912	1829	95,7	468	457	97,6
Yakkasaroy	786	876	111,5	170	216	127,1
Yashnobod	1 874	1952	104,2	464	454	97,8
Chilonzor	1 932	2134	110,5	448	497	110,9

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik (2019-yil yanvar-dekabr)



Demografik holat


Migratsiya. 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 34,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 27,0 ming kishi bo'lib, 2018-yilning mos davrida 15,2 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	25,5	34,7
Ko'chib ketganlar	10,2	7,7
Migratsiya saldosi	15,3	27,0



Toshkent shahrining tumanlar kesimidagi aholi migratsiyasi



Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Yashnobod (6,0 ming kishi), Chilonzor (3,7 ming kishi), Sergeli (3,6 ming kishi) hamda Mirzo Ulug'bek (3,6 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: O.Abdurahmanov
(71) 230-88-22